

AHOLI TADBIRKORLIGINI KREDITLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARI: MAHALLIY IQTISODCHI OLIMLAR QARASHLARINING QIYOSIY TAHLILI

Xusan Xusainov Baratovich

Kimyo Xalqaro Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

yangihayot456x@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-1546-3466>

Telefon raqam: +998(95)-850-34-56

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22655078>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 7-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 8-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Mazkur maqolada aholi tadbirkorligini kreditlashning nazariy-metodologik yondashuvlari hamda ushbu yo'nalishda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda aholi tadbirkorligini kreditlashning iqtisodiy mazmuni, kreditlash mexanizmining asosiy tarkibiy elementlari, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari va tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari tahlil qilingan. Mahalliy olimlarning ilmiy yondashuvlari tizimlashtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlangan hamda mavjud nazariy qarashlarning metodologik xususiyatlari baholangan.

Kalit so'zlar:

aholi tadbirkorligi; kreditlash mexanizmi; kredit resurslari; tadbirkorlikni moliyalashtirish; kredit samaradorligi; moliyaviy qo'llab-quvvatlash; kredit risklari; tadbirkorlik faoliyati.

Kirish.

Bugungi kunda aholi tadbirkorligini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kredit resurslari tadbirkorlik faoliyatini boshlash, mavjud biznesni kengaytirish va ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish hajmini oshirishning muhim moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bois aholi tadbirkorligini kreditlashning nazariy va metodologik asoslarini chuqur o'rganish hamda kreditlash mexanizmini takomillashtirish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Aholi tadbirkorligini kreditlash masalalari mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turli jihatlaridan o'rganilgan bo'lib, ularda kredit resurslaridan foydalanish, tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish va kredit risklarini boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq mazkur ilmiy qarashlarni tizimlashtirish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda shakllangan nazariy yondashuvlarning metodologik xususiyatlarini qiyosiy baholash zarurati mavjud.

Adabiyotlar sharhi (uslubiy materiallar sharhi). Aholi tadbirkorligini kreditlash masalalari mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy

qo'llab-quvvatlash, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

B. Berkinov o'z qarshlarida, kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda kreditlash mexanizmlarining ahamiyatini alohida ta'kidlab, kredit resurslari tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishda muhim omil ekanligini asoslaganini ko'rishimiz mumkin¹.

Shu bilan birga, N. Jo'rayevning fikricha, aholi tadbirkorligini rivojlantirishda mikrokreditlash tizimi va imtiyozli kreditlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Olimning ta'kidlashicha, mazkur moliyaviy instrumentlar nafaqat tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi, balki aholi bandligini oshirish hamda daromadlar darajasini ko'paytirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi².

N. Shoaxmedovaning fikricha, yoshlarni tadbirkorlikka tayyorlashda ta'lim tizimi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi³. Uning fikricha, mamlakatimizda tadbirkorlik asoslari, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va biznes-rejalar tuzishga oid mavzularni qamrab olgan maxsus kurslar hamda dasturlar joriy etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologik asosini mahalliy iqtisodchi olimlarning aholi tadbirkorligini kreditlashga oid ilmiy qarashlarini tizimlashtirish va qiyosiy tahlil qilish tashkil etadi. Tadqiqotda tizimli, qiyosiy va institutsional yondashuvlar, shuningdek, tahlil, sintez, induksiya, deduksiya va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Aholi tadbirkorligini kreditlashning tarixiy ildizlari va nazariy asoslarini yanada chuqurroq anglash maqsadida sharq mutafakkirlarining iqtisodiy qarashlari ham o'rganildi. Bu esa tadbirkorlik faoliyati va uning moliyaviy ta'minoti faqat G'arb olimlari tomonidan emas, balki Sharq olimlari tomonidan ham muayyan darajada ilmiy asoslab berilganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ushbu yo'nalishda shakllangan ilmiy qarashlar va amaliy tajribalar Sharq sivilizatsiyasiga mansub qadimiy hamda o'rta asr manbalarida o'z aksini topgan. Xususan, uch ming yillik tarixga ega Avestoda iqtisodiy munosabatlar, halol mehnat va mulkiy munosabatlarga oid dastlabki g'oyalar bayon etilgan bo'lsa, keyinchalik musulmon Sharqi allomalari tomonidan ushbu qarashlar yanada rivojlantirilgan.

Jumladan, "Naqshbandiya", "Yassaviya" hamda "Kubroviylik" tariqatlari doirasidagi ilmiy-ma'rifiy qarashlarda mehnat, halollik, iqtisodiy faollik va jamiyat farovonligini ta'minlashga qaratilgan tamoyillar mujassamlashtirilgan.

Mazkur manbalar va ta'limotlar tadbirkorlik faoliyatining axloqiy-ijtimoiy asoslari Sharq tafakkurida qadimdan shakllanganligini ko'rsatib, uning keyingi iqtisodiy nazariyalar rivojiga muhim ta'sir ko'rsatganligini tasdiqlaydi.

Ayniqsa, bu jihatdan "Naqshbandiya" ta'limotining ildizlari chuqur mazmunga ega. "Naqshbandiya"ning "Dil ba yoru, dast ba kor", ya'ni "diling Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin" degan ta'limot asoschisi Xo'ja Baxouddin Naqshbandiy kimxobga naqsh bog'lashda tadbirkorlik mahoratini namoyish etib, halol mehnat bilan yashash zarurligini ibrat qilib ko'rsatgan⁴. Ayrim manbalar uning mato to'qiydigan do'konlari borligiga ham ishora qiladi⁵.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, Bahouddin Naqshband o'zining ta'limotida mehnatni inson hayotining asosiy manbai sifatida talqin qilib, uni nafaqat nazariy, balki amaliy faoliyati orqali ham asoslab bergan. Mazkur yondashuv tarixiy jihatdan William Pettydan qariyb to'rt asr avval shakllangan bo'lib, unda mehnatning iqtisodiy va ma'naviy mohiyati chuqur

¹ B. Berkinov. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot", 2018-yil. 98-101-betlar

² N. Jo'rayev. Tadbirkorlik faoliyati asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot", 2020-yil. 156-bet.

³ N. Shoaxmedova Biznesning ijtimoiy mas'uliyati konsepsiyasi doirasida yoshlar tadbirkorligi. Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili. – Q., 2024-yil. 899-b

⁴ A. Muhammadjonov "Bahouddin Naqshband (Muxammad ibn Muxammad Baxouddin al-Buxoriy)" Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2018-yil. - 25-bet.

⁵ Abul Muhsin Muhammad Bokir ibn Muhammad "Bahouddin Balogardan". Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti, 1993-yil., 14-bet.

yoritilgan. Shu bilan birga, U. Petty tomonidan ilgari surilgan “boylikning otasi - mehnat, onasi esa yerdir”⁶ degan g’oya jahon iqtisodiy tafakkurida muhim bosqich sifatida e’tirof etilgan bo’lsa-da, Naqshbandiya ta’limotida bundan ancha oldin shakllangan va kengroq mazmun kasb etgan iqtisodiy-axloqiy qarashlar yetarli darajada ilmiy adabiyotlarda kiritilmagan.

Tadqiqot davomida yurtimiz tarixida hukmronlik qilgan buyuk davlat arboblari va mutafakkirlar merosida tadbirkorlik faoliyatiga oid ilgari surilgan fikr va qarashlarini ham chuqur o’rgandik. Xususan, Amir Temurning “Temur tuzuklari” hamda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida tadbirkorlik, xo’jalik yuritish, iqtisodiy boshqaruv va tashabbuskorlikka oid muhim g’oyalar ifodalanganligi aniqlandi.

Jumladan, Amir Temur mamlakatda siyosiy barqarorlik va iqtisodiy farovonlikni ta’minlashda tashabbuskorlik hamda tadbirkorlik faoliyatiga ustuvor ahamiyat berish zarurligini chuqur anglagan holda, bu tamoyillarni o’zining mashhur “Temur tuzuklari” asarida tadbirkorga “... mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va xushyor bir kishi minglab tadbirsiz va loqayd kishilardan afzaldir”⁷ deb tarif bergan. Ushbu g’oya Amir Temur tomonidan davlat boshqaruvi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda inson omilining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini, ayniqsa, tadbirkor va tashabbuskor shaxslar jamiyat rivojida asosiy o’rin tutishini ifodalaydi.

Shu bilan birga, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida keltirilgan tarixiy voqealar tadbirkorlik va savdo munosabatlarining o’sha davrdagi holati hamda ularni davlat tomonidan himoya qilishdagi izlanishlarini ham o’rgandik.

O’rganish natijalariga, asarda tasvirlangan holatlardan biriga ko’ra, shahar va qo’shin qarorgohlari atrofida savdogarlar va turli kasb egalari tomonidan faol savdo-sotiq amalga oshirilgan, biroq ayrim tartibsizliklar natijasida savdogarlar mol-mulki talon-toraj qilinganligi hamda mazkur vaziyatga Zaxriddin Bobur tomonidan darhol e’tibor qaratilib, talon-toraj qilingan barcha mol-mulkni egalari to’liq qaytarish bo’yicha qat’iy farmon berilganligini ko’rishimiz mumkin⁸. Ushbu qaror qisqa vaqt ichida amalga oshirilib, savdogarlarning barcha mol-mulki (eng kichik buyumigacha) egalari to’liq qaytarilgan.

Tadqiqotlar natijasida shuni aytishimiz mumkinki, ushbu tarixiy voqea “Boburnoma”da davlat hokimiyatining savdo va tadbirkorlik faoliyatini himoya qilishdagi rolini, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda bozor munosabatlarini tartibga solish zarurligini chuqur anglaganini ko’rsatadi. Shu nuqtai nazardan, Zaxriddin Muhammad Bobur davrida ham tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash va savdogarlar manfaatini himoya qilish davlat siyosatining muhim yo’nalishlaridan biri bo’lganligi yaqqol namoyon bo’ladi.

Aholi tadbirkorlik faoliyatiga oid ilmiy-nazariy qarashlar nafaqat tarixiy davr mutafakkirlari va davlat arboblari merosida, balki mustaqillikdan keyingi davrda faoliyat yuritayotgan mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham keng qamrovda o’rganilgan.

B. Berkinov o’z qarshlarida, kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy qo’llab-quvvatlashda kreditlash mexanizmlarining ahamiyatini alohida ta’kidlab, kredit resurslari tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishda muhim omil ekanligini asoslaganini ko’rishimiz mumkin⁹.

Shu bilan birga, N. Jo’rayevning fikricha, aholi tadbirkorligini rivojlantirishda mikrokreditlash tizimi va imtiyozli kreditlarning o’rni alohida ahamiyat kasb etadi. Olimning ta’kidlashicha, mazkur moliyaviy instrumentlar nafaqat tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi, balki aholi bandligini oshirish hamda daromadlar darajasini ko’paytirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo’ladi¹⁰.

⁶ W. Petty Political Arithmetic. Vol. I. - Cambridge: Cambridge University Press, 1899. - pp. 68–69.

⁷ Amir Temur. “Temur tuzuklari”. Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti. 2021-yil. 82-bet.

⁸ Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. Toshkent: “Sharq” nashriyoti. 2021-yil. 256-bet.

⁹ B. Berkinov. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2018-yil. 98-101-betlar

¹⁰ N. Jo’rayev. Tadbirkorlik faoliyati asoslari. Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2020-yil. 156-bet.

N. Shoaxmedovaning fikricha, yoshlarni tadbirkorlikka tayyorlashda ta'lim tizimi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi¹¹. Uning fikricha, mamlakatimizda tadbirkorlik asoslari, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va biznes-rejalar tuzishga oid mavzularni qamrab olgan maxsus kurslar hamda dasturlar joriy etilgan.

I. Alimardonovning ilmiy qarashlarida, kichik biznes subyektlarini kreditlashning nazariy va metodologik asoslari chuqur tadqiq etilgan¹².

Xususan, tadqiqotchi olimning fikricha, tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratiladigan past foizli kreditlar hajmini oshirish zarurligini asoslab, quyidagi muhim yo'nalishlarni taklif etgan (1-rasm):

1-rasm. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratiladigan past foizli kreditlar hajmini oshirish yo'nalishlari¹³

Birinchidan	Ikkinchidan
banklarning ustav kapitalida davlat ulushini oshirish va ushbu resurslarni maqsadli ravishda kichik biznes subyektlarini imtiyozli kreditlashga yo'naltirish;	pensiya jamg'armalari hamda davlat sug'urta tashkilotlarining vaqtincha bo'sh pul mablag'larini tijorat banklariga past foiz stavkalarida muddatli depozit sifatida joylashtirish va ularni aynan kichik biznesni moliyalashtirishga yo'naltirish mexanizmini joriy etish.

Yuqoridagi 1-rasm o'rganish natijalariga ko'ra, tadqiqotchi olimning fikrlarida, kreditlash tizimini takomillashtirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ushbu nazariy qarashlar tijorat banklari faoliyatini optimallashtirish, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini kengaytirish va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini oshirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot davomida mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining aholi tadbirkorlik faoliyatiga oid ilmiy-nazariy qarashlari tahlil qilinib, aholi tadbirkorligi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi. Mazkur faoliyat iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Shu jihatdan aholi tadbirkorligini rivojlantirishning nazariy va institutsional asoslarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarning yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida kreditlash aholi tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy vositalaridan biri ekanligi asoslandi. Bunda kredit resurslarining qulayligi, kreditlash shartlarining tadbirkorlik faoliyati xususiyatlariga mosligi, kredit risklarini samarali boshqarish va ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanishni monitoring qilish kreditlash samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

¹¹ N. Shoaxmedova Biznesning ijtimoiy mas'uliyati konsepsiyasi doirasida yoshlar tadbirkorligi. Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili. – Q., 2024-yil. 899-b

¹² I. Alimardonov Kichik biznes subyektlarini kreditlash: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: "Iqtisod-moliya".2023-yil. 12-bet.

¹³ I. Alimardonov Kichik biznes subyektlarini kreditlash: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: "Iqtisod-moliya".2023-yil. 13-bet.

1. Berkinov B (2018) Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot".98-101-betlar
2. Jo'rayev N (2020) Tadbirkorlik faoliyati asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot". 156-bet.
3. Shoaxmedova N (2024) Biznesning ijtimoiy mas'uliyati konsepsiyasi doirasida yoshlar tadbirkorligi. Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili.
4. Muhammadjonov A (2018) "Bahouddin Naqshband (Muxammad ibn Muxammad Baxouddin al-Buxoriy)" Toshkent:"Sharq" nashriyoti, 25-bet.
5. Abul Muhsin Muhammad Bokir ibn Muhammad (1993) "Bahouddin Balogardan". Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti.14-bet.
6. Petty W (1899) Political Arithmetic. Vol. I. - Cambridge: Cambridge University Press. pp. 68–69.
7. Amir Temur "Temur tuzuklari". Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2021-yil. 82-bet.
8. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma". Toshkent: "Sharq" nashriyoti. 2021-yil. 256-bet.
9. Alimardonov I (2023) Kichik biznes subyektlarini kreditlash: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: "Iqtisod-moliya". 13-bet.